



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 336 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi.....	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmonov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish.....	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	



LOGISTIKA AXBOROT TIZIMLARINI TEKNOLOGIK JARAYONLARGA JORIY ETISH

Uzaqov Ortik Shaymardanovich

Qarshi davlat texnika universiteti

“Optik aloqa tizimlari va tarmoqlari” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: uzaqovortiq@gmail.com

ORCID: 0009-0005-0456-1432

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada korxonada ishlab chiqarish jarayonlarida logistika axborot tizimlarini (at) joriy qilish, boshqaruv muammolarini aniqlash, korxonada samaradorligini oshirishning optimal usullarini qo'llash, axborotni qayta ishlash sikllari va logistika axborot tizimlari asosida logistika bo'limlari o'zaro ta'sirining tashkiliy sxemalarini amalga oshirishning iqtisodiy samaradorlik omillari asoslab berilgan. shuningdek, “aloqaventures” venchur fondining investitsiya salohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: logistika, transport, zaxirani boshqarish, logistika axborot tizimlari, logistika tashkiliy tuzilmasi, logistika mezonlari, logistika jarayonlari, venchur fond.

Abstract: This scientific article substantiates the economic efficiency factors of implementing logistics information systems (it) in the production processes of an enterprise, identifies management problems, applies optimal methods to improve enterprise performance, and implements organizational schemes for the interaction of logistics departments based on information processing cycles and logistics information systems. it also analyzes the investment potential of the “aloqaventures” venture fund.

Key words: logistics, transport, inventory management, logistics information systems, logistics organizational structure, logistics criteria, logistics processes, venture fund.

Аннотация: В данной научной статье обоснованы факторы экономической эффективности внедрения логистических информационных систем (ит) в производственные процессы предприятия, выявлены проблемы управления, применены оптимальные методы повышения эффективности деятельности предприятия, реализованы организационные схемы взаимодействия логистических подразделений на основе циклов обработки информации и логистических информационных систем. также проанализирован инвестиционный потенциал венчурного фонда «aloqaventures».

Ключевые слова: логистика, транспорт, управление запасами, логистические информационные системы, организационная структура логистики, критерии логистики, логистические процессы, венчурный фонд.

KIRISH

Jahon miqyosida ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishda moslashuvchanlik va harakatchanlikni talab etilishi, ichki va tashqi moddiy imkoniyatlarni optimallashtirishda logistika axborot tizimlaridan keng foydalanishga olib kelmoqda. Bu orqali axborot va moliyaviy resurslar bo'yicha umumiy xarajatlarni minimallashtirish, shuningdek, biznes jarayonlarini samarali optimallashtirish imkoniyatlari ortib bormoqda. Zamonaviy logistika axborot tizimlari va konsepsiyalari rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari tomonidan biznesning asosiy yo'nalishlarini strategik va operativ boshqarishda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Korxonalar ishlab chiqarish jarayonlariga logistika axborot tizimlarini joriy qilish murakkab jarayon bo'lib, ishlab chiqarishni boshqarish, savdo faoliyatini muvofiqlashtirish, mahsulotlarni yetkazib berish, kadrlarni joylashtirish kabi muammolar dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va vazifalarni hal etishda raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ahamiyatini e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi huquqiy hujjatlari asos bo'lib xizmat qilmoqda:

- “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni;
- “O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni;
- “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori;



– “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [1–4].

Mazkur qaror va farmonlar doirasida korxonalarda logistika axborot tizimlarini keng joriy etish uchun mustahkam huquqiy asos shakllangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari sohasida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlardan biri S. S. G‘ulomovning tadqiqotlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ularni joriy etish samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan.

B. A. Begalovning ilmiy ishlarida AKTning shakllanish bosqichlari, texnologik asoslari, jahonda va O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, shuningdek, korxonalarda AKTni joriy etish masalalari yoritilgan. Sh. G‘. Odilov esa kompaniyalarda logistik jarayonlarni AKT asosida takomillashtirish bo‘yicha amaliy yondashuv va takliflarni ilgari surgan [5,6].

Shuningdek, V. A. Medvedev va A. S. Prisyajnyuklarning tadqiqotlarida logistika operatsiyalari bilan bog‘liq asosiy axborot jarayonlari tahlil qilingan. V. I. Sergeyev esa logistika axborot tizimlarini logistikaning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, moddiy oqimga hamroh bo‘ladigan axborot oqimlarini tashkil etish zaruratini asoslab bergan. Ularning ilmiy asarlarida axborot logistikasining korxonada yetkazib berish, ishlab chiqarish va sotish bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlovchi vosita sifatidagi ahamiyati ta‘kidlangan [7,8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada monografik tahlil, ekspert baholash va tizimli yondashuv usullari asosida korxonalarda logistika axborot tizimlarini joriy etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot doirasida logistik jarayonlarning tashkil etilishi, korxonada faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, logistika axborot tizimlarini shakllantirish va boshqarish jarayonlari, shuningdek, ushbu tizimlar faoliyatining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muammolari tahlil qilingan.

Maqolani tayyorlashda quyidagi metod va yondashuvlardan foydalanilgan: tizimli tahlil, tafsilotli yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali logistikada samaradorlikni oshirishga qaratilgan faktor tahlili, hamda yetakchi olimlarning ilmiy qarashlarini chuqur o‘rganish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy logistika axborot tizimlarining menejment va biznes amaliyotiga joriy etilishi ishlab chiqarish korxonalarining bozordagi tashkiliy va iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, logistika axborot tizimlari rivojlanish jarayonida ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari duch keladigan quyidagi muammolar aniqlanmoqda:

- logistika axborot tizimlari va outsorsing o‘rtasida tanlov qilish zarurati;
- logistika axborot tizimlari xarajatlarini optimallashtirish uchun modellar va usullarni tanlash;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish;
- infratuzilma obyektlarini yaratish ehtiyoji;
- tizimni nazorat qilishda asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash;
- zamonaviy logistika axborot tizimlari jarayonlari va texnologiyalarini tashkil etish sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi.

Logistika axborot tizimlarini boshqaruv jarayonlariga tatbiq etishda korxonadagi funksional bo‘linmalarda oddiy xodimlar va ularning menejerlari tomonidan qarshiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, korxonada tizimni rivojlantirish xodimlarni rag‘batlantirishga jiddiy yondashishni talab qiladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlanishicha, “Aloqaventures” venchur fondi 2021-yilda ATB “Aloqabank” tomonidan innovatsion va istiqbolli startap loyihalarga sarmoya kiritish maqsadida tashkil etilgan. Mazkur venchur fond orqali quyidagi imkoniyatlar yaratilmoqda:

- Pre-Seed va Seed bosqichlarida investitsiyalar;
- yangi bozorlarga chiqish imkoniyati;
- texnik infratuzilma bilan ta‘minlash;
- marketing va texnik tahlil xizmatlari;
- bank ekotizimi bilan integratsiya.


Investitsiya yo‘naltiriladigan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- Smart Business;
- FinTech;
- Artificial Intelligence;



- Cloud Tech;
- E-Commerce;
- Sector Agnostic.

“Aloqaventures” venchur fondining bozor bahosi 285 million dollarni tashkil etadi. Ushbu fond tomonidan jami 31 ta startup loyihaga 4,110 million dollar miqdorida investitsiya kiritilgan. Hozirda 20 ta xorijiy davlatda startup loyihalar faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, xorijdan 15 million dollar miqdorida investitsiya jalb qilingan. Joriy etilgan startaplar foydalanuvchilari soni 11 410 ming nafarga, startaplardagi ishchi o‘rinlar soni esa 20 ming nafarga yetgan (1-rasm).



1-rasm. Startup loyihalarga investitsiya kiritayotgan venchur fondlar ko‘rsatkichlari

Aksariyat ishlab chiqarish korxonalari uchun logistika axborot tizimlari yordamida nazorat jarayonida asosiy ko‘rsatkichlarni tanlash muhim muammo hisoblanadi. Qoida tariqasida, ishlab chiqarish tizimi faoliyatini baholashda menejerlar oldida ko‘plab o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlardan iborat murakkab jarayon yuzaga keladi.

Har bir ishlab chiqarish korxonasi moddiy oqimlarni rag‘batlantirish jarayonini optimallashtirish bilan bog‘liq logistika axborot tizimlari yechimlarining samaradorligini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘rsatkichlar to‘plamini tanlashi lozim.

Maksimal natijalarga erishish uchun logistika axborot tizimlarini optimallashtirish jarayonini, avvalo, mazkur tizimlarning o‘zini – ya‘ni logistika axborot tizimlari bo‘limini optimallashtirishdan boshlash zarur. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, kompaniyaning logistika axborot tizimlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish ko‘p hollarda moliyaviy va vaqt jihatidan yo‘qotishlarga olib keladigan “mantiqsiz” holatlarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy logistika axborot tizimlarida axborot oqimlarining roli tobora ortib bormoqda. Xususan:

- iste‘molchiga buyurtma holati va mahsulotlarning mavjudligi haqida ma‘lumot taqdim etish;
- yetkazib berish vaqti logistika xizmatining zaruriy elementi sifatida;
- ta‘minot zanjiri holati to‘g‘risidagi to‘liq va ishonchli ma‘lumotlar mavjudligi talabdagi noaniqliklarni bartaraf etib, zaxira va mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi;
- axborot logistika tizimlarining moslashuvchanligi resurslardan qayerda, qanday va qachon foydalanish mumkinligini tushunish nuqtai nazaridan raqobatdosh ustunlikni ta‘minlaydi.

Zamonaviy logistika axborot tizimlari texnik jihatdan avtomatlashtirilgan dasturiy-apparat komplekslaridan foydalanadi. Yagona axborot makoni doirasida tizim ishtirokchilari o‘rtasida aniq aloqa imkoniyati zaruratga aylangan. Bu holat kompaniya xodimlarining muammolarni hal etish, korporativ ma‘lumotlarni tarqatish va



jarayonni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda norasmiy axborot oqimlarini tezda yuzaga keltirish imkoniyatini oshiradi.

Ushbu ko'rsatkichlar dinamikasini baholash va ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash orqali tizimdagi resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligini doimiy o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida ta'minlashda moddiy oqimlarning potentsial ishlash darajasini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunday hollarda ishlab chiqarish samaradorligi real natijalar va foydalanilgan resurslar o'rtasidagi tafovutni aniqlash orqali baholanadi.

Logistika axborot tizimlarida mavjud muammolarni quyidagi yo'llar orqali hal etish mumkin:


– buxgalteriya hisobi va nazoratdagi xatolar, ortiqcha xarajatlar va vaqt sarfini kamaytirish nuqtai nazaridan ichki logistik operatsiyalarni avtomatlashtirish;

– ekspert tizimlar texnologiyalari asosida sifatni oshirish;

– boshqaruv quyi tizimi tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar almashish kanallari va sensorlar bilan jihozlangan yagona axborot maydoni orqali axborot almashinuvini ta'minlash.

Logistika axborot tizimlarining roli passiv tarzda yuklatilgan vazifalarni bajarishdan tashqari, yangi imkoniyatlarni faol ravishda aniqlash darajasigacha kengaymoqda. Bu tizimlarning samarali ishlashi uchun maqsadlarga muvofiq ravishda ma'lumotlarni to'plash, tartibga solish va ulardan foydalanish imkonini beradigan mustahkam axborot infratuzilmasini shakllantirish lozim.

Umuman olganda, logistika axborot tizimlarida axborotni qayta ishlash sikli uch bosqichda amalga oshadi va blok-sxema shaklida tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. Logistika axborot tizimlarida axborotni qayta ishlash sikllari

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish korxonasi logistika axborot tizimlari faoliyatini asosiy jarayonlar bo'yicha amalga oshirish nuqtai nazaridan quyidagilarga to'xtalib o'tamiz:

- xomashyo va materiallarni yetkazib berish, kalendar rejalashtirish, yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'minlash, shu jumladan transport ishlari;

- mahsulot ishlab chiqarishda miqdoriy taqsimot rejasiga muvofiq mahsulot harakati, shu jumladan sotib olingan materiallar, xomashyo, tayyor mahsulotlar, ularning tushirilishi, yuklanishi, ombor faoliyati va boshqalar;

- mahsulot sotishga doir marketing rejasiga asosida talab prognozini tuzish, operatsion taqvim rejasini ishlab chiqish, mijozlarning kiruvchi buyurtmalarini qayta ishlash, shuningdek ombor va transport operatsiyalarini muvofiqlashtirish.



Moddiy quyi tizimning operatsiyalariga quyidagilar kiradi: yuklarni tashish, saqlash, tushirish va yuklash, yuk tashish bo'linmalarini shakllantirish va tarqatish, yuklarni qadoqlash va saralash, jo'natmalarni tayyorlash va boshqa shu kabi jarayonlar.

Aynan logistika axborot tizimlarida ta'minot zanjiri ishtirokchilarining real vaqt rejimida axborot almashinuvi orqali optimal xarajatlarni ta'minlash ehtiyoji mavjud. Ushbu muammoning yechimi logistikadagi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish — logistika axborot tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Logistika jarayoni ikki asosiy quyi tizimdan (oqimlardan) iborat: axborotlar oqimi va moddiy oqim. Logistika jarayoni rejalashtirish va tashkil etish bosqichidan boshlanadi, ya'ni materiallar oqimi hali mavjud bo'lmagan holatda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash bosqichi muhim rol o'ynaydi.

Axborot quyi tizimi doirasida quyidagi operatsiyalarni ko'rsatish mumkin: turli xil hisob-kitoblar, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, logistika jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan uchrashuvlar va muzokaralar, shartnomalar tuzish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va boshqalar.

Zaxiralarni optimallashtirish — logistika axborot tizimlarining asosiy muammolaridan biridir. Ushbu tizimlar asosida logistika bo'limlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlik omillarini aniqlash mumkin.

Logistika axborot tizimlari asosida biznes jarayonini boshqarish va tashkil etish samaradorligini miqdoriy baholash uchun iqtisodiy samaradorlik mezonlari ishlab chiqiladi. Mazkur tizimlarning joriy etilishi, o'z navbatida, ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorlikka erishishida mavjud muammolarni hal etish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Logistika bo'limlarining iqtisodiy samaradorlik omillari

Biznes jarayonini boshqarish va tashkil etishni takomillashtirish	
Korxonalar resurslaridan foydalanish va tejamkorlikni optimallashtirish	Biznes jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish
Logistika axborot tizimlarining afzalliklari	
operatsiyalarga sarflanadigan xatoliklar va vaqtni kamaytirish; ta'minot zanjiridagi bo'linmalar o'rtasida integratsiyani ta'minlash; kadrlar resurslarini optimallashtirish; operatsion xarajatlarni kamaytirish;	buxgalteriya hisobi va nazorat tizimini takomillashtirish; menejment va sherik ishtirokchilar uchun jarayonlarning shaffofligini oshirish; boshqaruv qarorlariga javob berish tezligi va sifati yaxshilanishi; xodimlar samaradorligini optimallashtirish va ichki hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.
O'zaro hamkorlikni tashkil etish afzalliklari	
sifatni saqlab qolish; xarajatlarni hamda logistika siklining vaqtini kamaytirish; biznes jarayonining aniqligini ta'minlash; ta'minot zanjiri bo'yicha zaxiralarni minimallashtirish;	marshrutlash va oqimlarni optimallashtirish; biznes jarayonlarini boshqarish integratsiyasini amalga oshirish; o'zgarishlarni boshqarish va tizimli integratsiyani ta'minlash.
Muvofiqlashtirish texnologiyalari bilan taqqoslaganda	
muvofiqlashtirish xarajatlarini kamaytirish; ichki faoliyatni optimallashtirish;	o'zgarishlarga moslashuvchanlik darajasini oshirish; o'zgarishlar amalga oshirish tezligini kuchaytirish.
Korporativ axborot tizimi bilan taqqoslaganda	
rivojlanish jarayonining evolyutsionligi; vaqt bo'yicha taqsimlangan investitsiyalar imkoniyati;	ishlatiladigan maxsus vositalardan foydalanish; tashkilot tuzilmasining alohida elementlari bilan ziddiyatlarni minimallashtirish.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, logistika axborot tizimlarini joriy etishda asosiy omillar quyidagilardir: foydalanuvchi ma'lumotlarining to'liqligi va foydaliligi, axborotning aniqligi, axborotni o'z vaqtida taqdim etish orqali maksimal samaradorlikka erishish, tadbirlar va ularning logistika axborot tizimlarida namoyon bo'lishi o'rtasidagi vaqt oralig'ini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlash. Bundan tashqari, tizimlar tuzilmasining moslashuvchanligi, qayta ko'rib chiqish va tuzatishga tayyorligi, hamda tashkilot ichidagi va tashqarisidagi foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi ta'minlaydigan mos ma'lumotlar formatiga asoslangan tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Logistika axborot tizimlarini keng miqyosda joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarida yagona hisob va nazorat tizimi shakllanadi, mahsulot va komponentlar harakati doimiy nazorat ostiga olinadi, xodimlar soni maqbullashtiriladi, buxgalteriya hujjatlaridagi xatolar bartaraf etiladi, omborxonalar tizimi avtomatlashtirilgan nazoratga olinadi, buxgalteriya hisobi va nazorati to'liq avtomatlashtiriladi, savdo oqimlari samarali boshqariladi, tovar-moddiy zaxiralar avtomatik tarzda inventarizatsiya qilinadi hamda buyurtmalarni avtomatlashtirish orqali savdo jarayonlarida aniqlik va tezlikka erishiladi.

Logistika markazlarini boshqaruvchi axborot tahlil markazlari odatda Internet tarmog'iga ulangan zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan bo'lib, ular murakkab va yuqori darajada rivojlangan dasturiy ta'minotga ega.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda logistikaning faol rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining oshib borishi, biznes tashkilotlaridagi tarkibiy o'zgarishlar va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi moddiy va tegishli axborot oqimlarini doimiy nazorat ostida ushlab turish, logistika konsepsiyalarini ishlab chiqarish faoliyatiga integratsiyalash hamda ichki va jahon bozorida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4103415>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda PQ-4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori. <https://lex.uz/docs/-4800657>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-noyabrda PQ-4022-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori. <https://lex.uz/docs/-4071219>
5. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. – Toshkent: Fan, 2010. – 704 b.
6. Odilov Sh.G'. Kompaniya logistik jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish mexanizmlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari ixtisosligi. – Toshkent, 2018-yil.
7. Medvedev V.A., Prisyajnyuk A.S. Informatsionnye sistemy i texnologii v logistike i upravlenii tsepyami postavok: Uchebnoye posobiye. – Sankt-Peterburg: Universitet ITMO, 2016. – 183 s.
8. Sergeyev V.I. Logistika v biznese: Uchebnyk. – Moskva: INFRA-M, 2001. – 608 s.
9. "Aloqavertures" venchur fondining 2018–2025-yillar uchun hisobotlari.
10. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>